

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2021-yilning IY- choragida amalga oshirilgan ishlar

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘I Sh. Shamshidinov ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–6155-son Farmoni doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlarni so‘zsiz, sifatli va o‘z muddatida ijrosini ta‘minlash borasida 2021 yilning IV choragida amalga oshirilgan ishlar hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o‘tdi.

Shuningdek, “2021 yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi” doirasida qo‘mita va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2021 yilda amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2021-yilning IY choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021-yilda Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 47 331,9 mlrd. so‘mnitashkil etdi va 2020-yil bilan taqqoslaganda 8,0 %ga o‘sdi. YAHM deflyator indeksi 2020-yildagi narxlarga nisbatan 16,7% nitashkilqildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 6,4 %ga yetdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida Farg‘ona viloyati korxonalarini tomonidan 27805,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,5 % ni tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 28095,1 mlrd. so‘mni yoki 2020–yilning mos davriga nisbatan 103,7 %ni tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, Farg‘ona viloyatida jami 7 024,2 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 115,8 %ni tashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) **48 111** tani tashkil etib, ulardan **46 277** tasi yoki **94,1** % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda **8 765** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **17,8** trln. so‘mni, 2020-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **120,0** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **19,9** trln so‘mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **108,9** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022-yilning yanvar-dekabr

o'ylarida 1 835,0 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 800,7 mln. AQSH dollari va import – 1 034,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 3 896,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 76,5 ming kishiga yoki 2,0 %ga o'sdi.

Farg'ona viloyatida 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida investitsion faollikni oshgani uzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 %ni tashkil etdi. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 12 920,6 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 59,1 %i yoki 7 640,7 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 40,9 % yoki 5 279,9 mlrd. so'm moliyalashtirildi.